



TALABALARNI MA'NAVYI-MA'RIFIY ISHLARNI SAMARALI TASHKIL ETISHGA TAYYORLASHDA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARNING AHAMIYATI

Erejepov Maxsud Tursinbaevich,

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining Umumiy pedagogika kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi talabalarni ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etishga tayyorlash jarayonida pedagogik shart-sharoitlarning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda ta'lim mazmunining ma'naviy qadriyatlar bilan boyitilishi, sog'lom ma'naviy muhit yaratish, amaliy faoliyatga yo'naltirish hamda psixologik qo'llab-quvvatlash omillari tahlil qilingan. Mazkur omillar talabalarning ijtimoiy faolligi, fuqarolik mas'uliyati va ma'naviy yetukligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ma'naviy-ma'rifiy ishlar, pedagogik shart-sharoitlar, talabalar, ma'naviy tarbiya, ijtimoiy mas'uliyat, milliy g'oya, vatanparvarlik, fuqarolik pozitsiyasi, iste'dod, qobiliyat, pedagogik rahbarlik, ma'naviy muhit.

Аннотация. В диссертации рассматриваются роль и значение педагогических условий в процессе подготовки студентов к эффективной организации духовно-просветительской работы. Анализируются факторы обогащения содержания образования духовными ценностями, создания здоровой духовной среды, практической ориентации и психологической поддержки. Эти факторы способствуют развитию социальной активности, гражданской ответственности и духовной зрелости студентов.

Ключевые слова: духовно-просветительская работа, педагогические условия, учащиеся, духовное воспитание, социальная ответственность, национальная идея, патриотизм, гражданская позиция, талант, способности, педагогическое лидерство, духовная среда.

Annotation. This thesis highlights the role and importance of pedagogical conditions in the process of preparing students for effective organization of spiritual and educational work. The study analyzes the factors of enrichment of educational content with spiritual values, creation of a healthy spiritual environment, orientation to practical activities and psychological support. These factors serve to develop social activity, civic responsibility and spiritual maturity of students.

Key words: spiritual and educational work, pedagogical conditions, students, spiritual education, social responsibility, national idea, patriotism, civic position, talent, ability, pedagogical leadership, spiritual environment.

KIRISH

Jamiyatning ma'naviy poydevori, ijtimoiy barqarorligi va taraqqiyoti ko'p jihatdan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning qay darajada tizimli tashkil etilishiga bog'liq. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat — bu insonni, ayniqsa yosh avlodni ma'naviy jihatdan kamol toptirish, milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani saqlash, fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik jarayondir. Shu sababli, talabalarning ushbu sohadagi tayyorgarligi oliy ta'lim tizimi oldidagi dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.





ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” asarida “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hesh qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi ushun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarvar etamiz” - deb ta’kidlagan.

B.M.Umarovning fikricha, talabalarning milliy g‘oya va istiqloq mafkurasi ruhida tarbiyalanishi ularning fuqarolik pozitsiyasi, vatanparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantirishda asosiy omildir. Bu jarayon ta’lim mazmunini g‘oyaviy jihatdan boyitish va psixologik yondashuvni kuchaytirishni talab etadi. Shu bilan birga, I.Ivanov va M.Zufarovlar fikricha, iste’dod shaxsning tug‘ma layoqatlari asosida muhit, ta’lim-tarbiya va o‘z ustida ishlash orqali rivojlanib boradi. Shunday ekan, ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayoni talabalar iste’dodini ro‘yobga chiqarish va ularning shaxsiy kamolotini ta’minlash vositasi sifatida qaralishi lozim.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Talabalarni ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali tashkil etishga tayyorlash jarayonining muvaffaqiyati, avvalo, yaratilgan pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq. Pedagogik shart-sharoitlar deganda, ta’lim-tarbiya jarayonida shaxsning ma’naviy o‘sishi, ijtimoiy faolligi, milliy g‘ururi va axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi tashkiliy, didaktik va psixologik omillar majmui tushuniladi.

Birinchidan, ta’lim mazmunining ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan boyitilishi — talabalarni ma’naviy-ma’rifiy ishlar ruhida tarbiyalashning poydevoridir. O‘quv jarayoniga milliy g‘oya, vatanparvarlik, insonparvarlik, tarixiy merosga hurmat va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish talabalarning dunyoqarashi va shaxsiy pozitsiyasini shakllantiradi.

Ikkinchidan, sog‘lom ma’naviy-madaniy muhit yaratish — talabalarni ushbu faoliyatga tayyorlashning muhim shartidir. Oliy ta’lim muassasasida ijtimoiy-psixologik muhit, talabalar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, pedagogning shaxsiy namunasi va tarbiyaviy ishlarning samarali usullari ma’naviy iqlimni belgilaydi.

Uchinchidan, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim talabalarning ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish kompetensiyalarini shakllantiradi. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, loyihalar, ijtimoiy tashabbuslarda faol ishtirok etish talabalarda tashabbuskorlik, jamoada ishlash, tashkilotchilik va ijtimoiy mas’uliyat kabi muhim ko‘nikmalarni rivojlantiradi.





To‘rtinchidan, pedagogik rahbarlik va psixologik qo‘llab-quvvatlash orqali talabalarni o‘z ichki ma‘naviy imkoniyatlarini anglashga va rivojlantirishga yo‘naltirish zarur. Bu jarayonda o‘qituvchining individual yondashuvi, motivatsiya yaratish mahorati, shaxsiy namunasi hamda empatik muloqot uslubi alohida ahamiyatga ega.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, talabalarni ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni samarali tashkil etishga tayyorlash — bu ko‘p qirrali, tizimli va integrativ jarayon bo‘lib, u ta‘lim mazmuni, pedagogik muhit, faoliyat shakllari hamda psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimining uzviy uyg‘unligida kechadi. Mazkur jarayonni izchil tashkil etish yosh avlodni ma‘naviy barkamol, ijtimoiy faol va Vatanga sodiq inson sifatida tarbiyalashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: “ЎЗБЕКИСТОН” нашриёти, 2016 й. - 59 Б., 14-б.
2. Umarov B.M. Psixologiya. – Т.: “Voris” nashriyoti, 2012. – 150-151 b.
3. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. – Т.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2008. – 386 b.
4. Utebaev T.T., Esemuratova T.A., Bayniyazova G.M.Ulwmma psixologiya. – Т.: «Tafakkur avlodi» nashriyoti, 2023. -220 b.

